

O'ZBEKNING O'Z SHOIRI

Xurshida Haydarova

TDYU Xususiy huquq fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Nodir Ramazonov

O'zining butun hayoti va ijodi bilan o'z xalqining minnatdorchiligiga va hurmatiga sazovor bo'lgan baxtiyor adiblardan biri zamonasining otashnafas kuychisi G'afur G'ulomdir. Darhaqiqat, G'afur G'ulomning hayot va ijod yo'li o'zbek xalqining o'sish, ravnaq topish, taraqqiyot va takonil yo'lidir. Shuning uchun ham to'la ishonch bilan ayta olamizki, shoir chindan ham o'zini o'z xalqining sadosi, tilmoqchi , deb faxrlanishga tamomila haqlidir.

Basharti shoirning hayot yo'lini eslatib o'tmoq zarurati tug'ilib qolar ekan, buning o'zbek ziylolarining birinchi bo'g'ini uchun xarakterli bir yo'l bo'lganini ko'ramiz.

Shoirning tug'ilish sanasi – 1903-yil 10-may. Joyi – Toshkent shahri, Qo'rg'ontegi mahallasi. Eski usuldag'i mahalla maktabi , 1916-yil. Rus-tuzem maktabi 1919-yilda komsomol. O'qituvchilar kursi – muallimlik 1923-yil. Boqimsiz bolalar uyiga murabbiy va keyinchalik mudir. Yana shu yilda shoirning birinchi she'ri matbuotda bosilib chiqadi. Bundan keyin u ijodkor sifatida o'z taqdirini respublikadi vaqtli matbuot bilan bog'lab, "Sharq haqiqati", "Qizil O'zbekiston", "Yer yuzi" gazeta va jurnallarida adabiy xodim bo'lib ishlaydi .

Bir shoir sifatida G'afur G'ulom yaratgan ilk to'plamlar "Dinamo" (1931) va "Tirik qo'shiqlar" (1932)dayoq biz jangovar kuychingin paydo bo'lganini ko'ramiz. Albatta, bu o'sish jarayonida uning bevosiya adabiyot ustozlari bo'lgan. Bular bir tomonidan , o'zbek klassik she'riyatining otaxoni- Alisher Nasvoiy , o'zbek realist va dermokrat adabiyotining peshvosi- Muhammad Amin Muqimiy bo'lsa, ikkinchi tomonidan , Sharqning zabardast so'z ustalari – Sa'diy, Hofiz, Fuzuliy edilar. Shoir 1930-1943-yillar mobaynida o'zbek adabiyoti tarixi fondiga kirgan qator dostonlar yaratdiki, bulardan har qaysisi o'z davrining actual, keskin ijtimoiy-siyosiy , hayotiy, axloqiy muammolarini hal qilishga qaratilgan edi. "Ko'kan" (1930-1933), "Egalari egallaganda" (1931) kabi dostonlar va "To'y" (1934), "Ikki vasiqa " (1935) kabi manzumalar bu intilishning samaralaridir. Dotonchilik va manzumachilik chizig'ini davom ettirib shoir keyinchalik urush yillarda o'zbek xalqining qahramonlarcha himmati soyasida qurilgan Farhod GES ga bag'ishlab "Suv va nur" (1943) manzumasini yaratdi .

G'afur G'ulom ijodi haqida so'z yuritganda adibning nasriy asarlari to'g'risida gapirmasdan bo'lmaydi. Uning asarlarini haqiqiy milliy nasr deya olamiz. "Shum bola" (1932-1965), "Netay" (1930), "Yodgor" (1936), "Tirilgan murda" (1934), "Mening o'g'rigina bolam" kabi qissa-yu hangomalarni hech ikkilanmasdan adabiyotimizning durdonalari deb atasa bo'ladi .

1941-1945-yillarda, Vatanimiz boshiga qonli kulfatlar tushgan chog'larda, yozuvchi yuksak vatanparvarlik hislari bilan otashin she'lar yozib, xalqimizni qahramonlikka, jasoratga, mehnatga, sadoqatga, do'stlikka, birlikka chaqirdi. Bular qatorida "Kuzatish", "Men yahudiy", "Sen yetim emassan", "Salom va tabrik", "Sog'inish", "Qish" kabilar mavjud.

G'afur G'ulom mumtoz adabiyotimiz va xalq ijodidan o'rganish bilan chegaralanib qolmadi, u jahon xalqlari, ayniqsa, rus adabiyoti maktabi bilan ham bahramand bo'ldi. V.Sheksperring "Otello", "Qirol Lir" Lope de Veganing "Qo'zibuloq qishlog'i", F.Shimirning "Vilgelm Tell", Nizomiy, Jomiy, A.Pushkin, L.Tolstoy, A.To'qay. T.Shevchenko, Prem Chand haqida maqolalar yozdi. Nozim Hikmat, Antol Gidash, Xodi Toqtosh, A.Lohutiy, M.Tursunzodadan tortib. A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, N.A.Nekrasov, V.V.Mayakovskiygacha bo'lgan ijodkorlar asarlarini o'zbekchaga tarjima qilib o'zbek kitobxonlarini jahon adabiyotining noyob durdonalari bilan tanishtirishda o'z hissasini qo'shdi .

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etilganida, birinchilardan bo'lib akademiklikka saylangan ulkan iste'dod egasi, mohir yozuvchi va shoir G'afur G'ulom avlodlarga ulkan ma'nnaviy me'ros qoldirdi, deya olamiz. Negaki, o'z asarlari bilan kitobxonga vatanparvarlik, sadoqat, birlik, sabr kabi tuyg'ularni singdirishga harakat qilganiga asarlari bilan tashish orqali guvoh bo'lamiz. Goho yozuvchining kichin bir hajviyasini o'qib ham muallifning dunyo qarashi, e'tiqodini adashmay aniqlab olsa bo'ladi. Balki, shu sababli ham yozuvning nasrda yozilgan asarlari hali hanuz kitobxonlar qo'lidan tushmaydi va ularni mutoola qilish barcha birdek unutilmas hajviyalar guvohi bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'afur G'ulom "Yodgor". Adabiyot va san'at nashryoti , 1983.
2. G'afur G'ulom . Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi- 2016.
3. G'afur G'ulom . Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi- 2016.
4. G'G'ulom. Asarlar (10 tomlik).-T.: "Adabiyot va san'at", 1-3-tomlar, 1972.